

**INSONNING UMUMINSONIY FAZILATLARINI YUKSALTIRISH,
HAYOTIMIZDAGI MILLIY QADRIYATLARGA INTILISH OMILI**

A.S. OTOKULOV, A.A. ABDIGAPIROV, SH.T. MAHMUDOV
Axborot - kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti

Annotatsiya. Mazkur maqolada shaxs ma'naviyatli bo'lib kamol topishida umuminsoniy fazilatlarning o'rni, umuminsoniy fazilatlarni yuksaltirish jamiyat barqarorligini ta'minlash garovi ekanligi, umuminsoniy qadriyatlarni tiklashda jamiyatning ta'siri, ma'naviy meros dunyo ma'naviyati taraqqiyotiga hissa bo'lib ko'shilgani, ajdodlarimizning umuminsoniy fazilatlari bilan xalqimizga shaxsiy na'muna sifatida o'rnak bo'lganligi, xalqimizga madad bo'ladigan ma'naviy merosimizga tayangan holda umuminsoniy fazilatlarni ko'z qorachig'imizdek asrashimiz va yanada boyitishimiz zarurligi, umuminsoniy fazilatlar eng avvalo oilada, jamiyatda toplanib borishi, umuminsoniy fazilatlar va uning o'rnini-xalqimizning azaliy an'alariga, udumlariga, ruhiyatiga asoslanib kelajakka ishonch va ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirish zarurligi haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Mehr-oqibat, saxovat, hamjihatlik, bag'rikenglik, sabr-toqatli bo'lish, shukronalik, bilim, ma'rifat, madaniyat, umuminsoniy fazilat, tarix, sadoqat, insonparvarlik, halollik, axloq, ma'naviyat, tinchlik, mas'uliyat, oila, ilm, qanoat.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль общечеловеческих качеств в становлении личности как духовной, тот факт, что возвышение общечеловеческих качеств является гарантией обеспечения стабильности общества, влияние общества на восстановление общечеловеческих ценностей, вклад духовного наследия в развитие мировой духовности, а также роль наших предков, как личного напоминания нашему народу об универсальных качествах, накопление в обществе подчеркивается необходимостью вселить в наши умы чувство уверенности и просветления в отношении будущего, основанного на универсальных качествах и их месте - на давних традициях, достижениях, психике нашего народа.

Ключевые слова: доброта, великодушие, гармония, толерантность, терпение, благодарность, знание, просвещение, культура, универсальная добродетель, история, верность, гуманность, честность, мораль, духовность, мир, ответственность, семья, наука, удовлетворенность.

Annotation. This article discusses the role of universal human virtues in the spiritual development of an individual, emphasizing that the promotion of universal virtues is the key to ensuring societal stability. It highlights the impact of society in restoring universal values, the contribution of our spiritual heritage to the development of world spirituality, and how the universal virtues of our ancestors served as personal

examples for our people. The article stresses the need to preserve and further enrich our spiritual heritage, relying on it as a support for the future. It also underlines that universal virtues primarily develop within the family and society, and that these virtues should be rooted in our nation's ancient traditions, customs, and spirit. Furthermore, it is essential to instill feelings of trust and knowledge for the future in our consciousness.

Keywords: compassion, generosity, harmony, tolerance, patience, gratitude, knowledge, enlightenment, culture, universal virtues, history, loyalty, humanity, honesty, ethics, spirituality, peace, responsibility, family, science, contentment.

Bugungi globallashuv davrda ma'naviyatli shaxs, inson qadrini bilishi, milliy qadriyatlarini, milliy o'zligini anglashi, erkin jamiyatda yashash uchun fidoiylik talab qiladi, tarix, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat egasi bo'lgan millatimizning farzandi sifatida, ana shu bebaho boylikni asrab-avaylash, uni turli xil tahdidlardan himoya qilish haqida qayg'uradigan inson sifatida yuqorida zikr etilgan o'ta muhim va o'ta nozik bu masalalar jamiyatimiz e'tiboridan chetda qolmaydi.

Inson kamolotiga umuminsoniy fazilatlarning qanday ta'sir va ahamiyatga ega ekani, shuningdek, ma'naviyatga qarshi axborot xurujlarning xavfi haqida atroflicha fikr yuritish, hozirgi murakkab va tahlikali zamonda insonlarni bunday xatarlardan ogoh etish, kelajak avlodimizni ma'naviy sog'lom qilib tarbiyalash bilan bog'liq vazifalarni aniq belgilab olish borasidagi ehtiyoj hayotiy dolzarbligini yo'qotmaydi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, dunyoda keng e'tirof etilayotgan ushbu ilmiy-ma'naviy meros dunyo ma'naviyati taraqqiyotiga hissa bo'lib ko'shilgani ma'lum. Muhammad Xorazmiy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Ahmad Farg'oni, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Alisher Navoiy va boshqalar kabi ulug' ajdodlarimiz jahon ilmi-fanining yuksak cho'qqilarini zabt etganlar. Jumladan, Amir Temurdek sarkardalarni tarix taqozosi, davr ehtiyoji hayotga olib keladi va u zotlarning fazilat xususiyatlarini namoyon qilishga zamin yaratadi. Bunday qonuniyatni ko'plab misollarda tasdiqlash mumkin, tarixiy vaziyat haqida alohida to'xtalib o'tishimiz lozim.

Eng qonli va dahshatli qirg'in bo'lgan Ikkinchi jahon urushi Sovet Ittifoqida — jumladan, O'zbekiston ham o'sha davrda ana shu davlat tarkibida bo'lgan millionlab odamning hayotiga zomin bo'lgan edi, turli millatlarga mansub qancha insonlarning guldek umri, ularning dog'ida kuyib o'tgan onalar, suyukli yorlar, qadrdon insonlarning cheksiz g'am-g'ussasi mujassam ekani, bularning barchasini so'z bilan ifoda etib bo'lmaydi, insonning xayoliga aslo sig'maydigan fojia ekani barchamizga ayon.

Xalqimiz front ortida fidokorona mehnat qilib, urush maydonlariga juda katta miqdorda harbiy texnika, qurol-yarog‘, dori-darmon, kiyim-kechak, oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berdi. O‘ta og‘ir va mashaqqatli yillarda xalqimizning insonparvarlik va bag‘rikenglik fazilatlari yaqqol namoyon bo‘ldi. El-yurtimiz mamlakatning urush bo‘layotgan g‘arbiy hududlaridan evakuatsiya qilingan turli millatga mansub bir millionga yaqin bolalar, ayollar va keksalarga boshpana berib, bir burda nonini ular bilan baham ko‘rdi [1].

Mehr-oqibat, saxovat, hamjihatlik, bag‘rikenglik, sabr-toqatli bo‘lish, shukronalik kabi boshqa xalqlarda kam uchraydigan noyob fazilatlarini yaqqol namoyon etdi [2]. O‘zbek xalqimiz mehru oqibat, chidam va hurmat, o‘zgalarning dardiga hamdard bo‘lish kabi umuminsoniy fazilatlarni yanada yuksaltirish qalbimizdan tobora ko‘proq joy olayotgani katta ahamiyatga ega.

Bilim, ma‘rifat, madaniyat bilan boshqalarga o‘rnak bo‘lganmiz. Bu - bizning qon-qonimizga, zotu zurriyotimizga singib ketgan, milliy qadriyatimizga aylangan fazilat [3].

Millatimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi, ajdodlarimizdan avlodlarga o‘tayotgan ma‘naviy merosning kuchliligi, fuqarolarimizning ona-Vatanga mehri, milliy g‘ururimiz xalqimizning kuch-qudrati hisoblanadi.

Kishilarning bir-biriga mehr-oqibatli bo‘lishi, kam ta‘minlangan va alohida parvarishga muhtoj insonlarning holidan xabar olish va muruvvat ko‘rsatish, hayru-ehson qilish, bular xalqimiz qadriyatlarining o‘zagini tashkil etib, muqaddas dinimiz ham barchani shunga o‘rgatadi va shu yo‘lga boshlaydi. Bu esa, o‘zbek xalqining azaliy umuminsoniy fazilatlaridan biridir [4].

Oldin insonlarda sharmu hayo, ahdiga vafo, mehru muhabbat, sadoqat kabi umuminsoniy fazilatlar bugunga kelib ayrim yigit-qizlarimiz tomonidan unut bo‘layotgani aynan ularning oilasi tashqi ma‘naviy tahdidlarga qarshi turaolmasligining isbotidir [5]. 1-rasmda ko‘rsatilgan.



1-rasm. Shaxs ma'naviyatini yuksaltiriltiruvchi umuminsoniy fazilatlar

Oldinda bo'lishi mumkin bo'lgan ma'naviy tahdidlarga qarshi tura olish uchun shu yurtda yashayotgan insonlar o'zligini anglashi, tariximiz va madaniyatimiz hamda ajdodlarimizning merosini o'rganishimiz, globallashuv davrda hayotiy voqelikka ongli qarab, mustaqil fikrlash va jamiyatimizdagi barcha o'zgarishlarga daxldorlik tuyg'usi bilan yashashimiz darkor, ana shunda xalqimiz umuminsoniy fazilatlariga, yuksak ma'naviyatga ega bo'lib ezgu maqsadlarga albatta yetamiz.

Umuminsoniy fazilatlar – bu insonning millati, irqi, diniy e'tiqodi, qaysi hunar egasi ekanligi, ijtimoiy kelib chiqishi, jamiyatdagi o'rni, yer yuzining qaysi xududida yashashidan qat'i nazar, axloqiy qoida, me'yorlarga rioya etish, axloqiy fazilatlariga ega bo'lish darajasidir [6].

Bizga ma'lumki, umuminsoniy fazilatlarni shaxs ongiga singdirish avvalo oiladan boshlanadi va bunda oila, sulola mafkurasi, bobolar o'giti, otaning shaxsiy ibрати, onaning mehri orqali insondan insonga, avloddan avlodga o'tadi, bolaning ong va shuurida muhrlanib boradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda axloqiy, g'oyaviy tarbiyaviy jihatdan sog'lom bo'lgan oila negizidagi jamiyat va davlat mustahkam bo'ladi. Bunday oilada barkamol shaxs voyaga yetadi, uning his-tuyg'ulari, tushuncha va dunyoqarashida bu fazilatlar aks etadi [7].

Jamiyat umuminsoniy fazilatlarni shaxsga chuqur singdirish orqali uning shonu sharafi, g'ururi, burchi va vazifalari kabi mezonlarni ko'rsatib beradi. Maktabda yoshlar o'zaro bir-biriga hurmat, intizom asosida o'z burch va vazifalarini bajarishlari bilan bir-birlariga nisbatan ezgulik va mehr-oqibat ko'rsatishlari muhim fazilatlardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda olimlarimiz eng yaxshi an'analarni o'zlashtirib, tarixiy merosimizni chuqur o'rganib, buyuk ajdodlarining ishlarini davom ettirmoqdalar. Ziyolilarimizning muhim fazilati hamma vaqt bilimga, ilg'or ilmiy tafakkurning oldingi marralarida bo'lishga intilishdan iborat. Ular kam o'rganilgan, dolzarb muammolarni tadqiq qilishga kirishib, o'z mehnatlari bilan sezilarli hissa qo'shib kelmoqdalar.

Bilim — ta'limtarbiyaning boshi, baxtli, saodatli yashash asosi. Shuningdek, odamiylikni ulug'lovchi qadriyat, sirlar ummonidagi dunyo mohiyatidan voqif etuvchi bebaho xazinadir. Har bir inson odob o'rganishi, barcha zaruriy kasb-hunar hamda bilimlarni egallab, iqtidorini yuksaltirib borishi lozim. Umr deb atalmish hayot yo'lida uchraydigan turli sinov, qiyinchilik, muammolarni bartaraf etishda o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalari unga doimo asqotadi [8].

O'rni kelganda "Bilim" va "Ilm" so'zlarining ma'nosi, mazkur ikki kalomning bir-biridan farqi nimadan iborat ekaniga to'xtalib o'tsak. "Bilim" so'zi bilish, ma'lumotga ega bo'lish, anglash, o'zlashtirish ma'nolarini anglatadi. Bilimning ilmdan farqi shundaki, bilim – o'zbekcha (turkiy) so'z, ilm esa arab tilidan kirgan. Arabcha "Ilmun" kalimasi ham "Bilish", ma'lumotga ega bo'lish mazmuniga ega. O'zbek tilida bilim va ilm so'zlari sinonim so'zlar sifatida qo'llaniladi [9].

"Ilm" so'zi lug'atda bir narsani voqelikdagidek idrok etishni bildiradi. Ma'naviy ishlarda narsalarning aniq bilish sifatiga "ilm" deyiladi. Ilmli inson doimo ustun turishi va fazilatli hisoblanishi, ustozlarimizdan birlarining o'ta foydali o'gitlarini eslab o'tishimiz foydali. "Ilm uch tomondan kiradi. Quloqdan eshitish bilan, ko'zdan o'qish bilan va qo'ldan yozish bilan" degan edilar. Tolibi ilm uchun ko'z va quloq orqali ilm olish oson tuyuladi. Chunki bu holatda ilm ortiqcha urinishsiz o'rganiladi. Yozish esa anchagina mashaqqat va mehnat talab qiladi. Shuning uchun ko'pgina tolibi ilmlar bu ishdan qochadilar. Lekin oson hosil bo'lgan narsaning ketishi ham oson. Qiyin hosil bo'lgan narsaning ketishi ham qiyin. Eshitilgan narsa osonligi uchun o'qigan yoki yozgan narsadan tezroq esdan chiqadi, o'qigan narsaning yoddan ko'tarilishi esa eshitgan narsanikidan ko'ra qiyinroq kechadi. Yozish qiyin bo'lganidan yozgan narsa zehnda uzoq o'rnatib qoladi. Shu bilan birga, yozilgan narsani boshqalar ham o'qishi, undan foydalanishi mumkin. Shuning uchun yozishga katta ahamiyat berish zarur [10].

Olim odam dars berayotganida yoxud biror ma'lumot yetkazayotganida eshituvchiga tushunarli qilib gapirishi lozimligini anglatishdir. Chunki ikkala holatda ham u ilm yetkazayotgan bo'ladi [11]. Biz ham dars beradigan yoxud biror ma'lumotni yetkazadigan bo'lsak, o'sha narsa eshituvchiga tushunarli bo'lish uchun harakat qilishimiz lozim bo'lsa, ikki-uch marta takrorlashimiz kerak [12]. Ilmiy suhbatlar qurish nafaqat og'ir vaqtlarda, balki oddiy holatlarda ham foydalidir. Kasb-kori va dunyoqarashlari yaqin kishilarning doimiy ravishda ma'lum vaqt to'planib, bir ilmli kishidan ta'lim olishlarining o'zgacha manfaati va fayzi bor. Bunday holatda hech kimdan tortinmay, bilmagan narsani bema'lol so'rash, baxslashish mumkin. Shu bilan birga birodarlik rishtalari ham quvvatlanadi. Kishilar bir-birlariga yanada yaqinlashadilar va ko'pgina foydalar hosil bo'ladi [13].

Halollik nisbatan tor shar'iy qobiqdan chiqib, asta-sekin shaxs hayotidagi keng qamrovli axloqiy me'yorga aylandi, teran ma'naviylik kasb etgani holda, kundalik hayotdagi insoniylikni belgilaydigan umuminsoniy fazilatga aylandi [14].

Halollik (arab tilida ruxsat etilgan, yo'l qo'yilgan, qonuniy, asosli, to'g'rilik, vijdonlilik) — shariat hukmiga muvofiq yesa, ichsa, foydalansa bo'ladigan, kishining o'ziga qarashli, o'z mehnati bilan, peshona teri to'kib topilgan, xiyonat, g'irromlik kabilardan xoli, qing'ir yo'lga bormaydigan, birovni aldamaydigan, to'g'ri, sof, pokiza

bo'lishni talab qiladigan ma'naviy-axloqiy me'yorni anglatuvchi tushuncha. Insonni ma'naviy-axloqiy jihatdan bezaydigan ajoyib fazilatlaridan biri — halol, pokiza yashash, bironlarning haqiga zarracha bo'lsa-da, xiyonat qilmaslikdan iboratdir [15].

Bugungi jamiyatimizda halollikda ikki xil qarash mavjud. Birinchi qarash, insonlar o'z nonini halol mehnat qilib topadigan, ezgu ishlari bilan xalqqa nafi tegadigan, o'zligini teran anglab bugungi hayot lazzatlari va oxiratni o'ylab yashaydigan odamlarga xos fazilatdir. Bunga qarama-qarshi bo'lgan qarash mavjud, hayoti haqida o'ylamaydigan, o'zini qiynamaydigan, faqat nafsga berilib, yengil umr kechirishni o'ylaydigan, o'zining ota-onasiga va farzandiga befarq bo'lib yashaydigan odamlar ham mavjud. Halollik bilan hayot kechirish kabi fazilatlarining ma'nosini chuqur anglash, va xususiyatlariga ega bo'lish hamda amal qilish, insonlarning ma'naviyatini belgilab beradigan asosiy mezon hisoblanadi. Odamlar umrida har doim orzu qilib, intilib kelgan ma'naviylikning ifodasi sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq.

Qanoat – o'zidagi ne'matga shukr qilish, boshiga tushgan musibat, qashshoqlik va qiyinchiliklarga sabr-bardoshli bo'lish. Qanoat aqlli odamlarning fazilatidir. Ammo qanoat rizq qidirish va kasb bilan shug'ullanishdan tiyilish degani emas. Balki, kasb tufayli topgan narsasiga shukr qilish va ortiqchasiga intilmaslikdir. Qanoatli inson umri mobaynida doimo baxtiyorlikni his etib yashaydi. Shu bilan birga, boshqalarga ham yaxshi muomalada bo'ladi, ularni ham o'zi kabi shodlik sari yetaklaydi. Shuning uchun qanoatli kishini barcha hurmat qiladi. Bironlarning qo'lidagi narsani ko'rib, ma'yus bo'lmaslik va tamagirlikdan qochish. Chunki, tamagirlik, albatta, kambag'allik sari yetaklaydi.

Yurtimiz tinch, hayotimiz osuda va farovon bo'lishiga qaramasdan, bugungi kunda jamiyatimizda turli huquqbuzarliklarning sodir bo'lishi, yoshlar orasida jinoyatchilikning ortib borishi, shuningdek, oilaviy kelishmovchiliklar va ajrimlarning ko'payishi, aksar hollarda, qanoatsizlikdan kelib chiqayotgani bor haqiqat. Demak, ana shunday noxushliklarning muolajasi va oldini olish chorasini qanoat deb atalmish ko'ngil boyligini hosil qilishdan izlashimiz zarur [16].

Har bir insonni ko'zgu, ibrat va saboq deb bilish uchun esa uni qadrlay bilmoq, uni asrab-avaylamoq, unga hurmat-ehtirom ko'rsata bilmoq, unga ishonmoq kerak. **Insonparvarlikning** avvali — fikrparvarlikda, g'oyaparvarlikda. Ana shu tuyg'ularni umuminsoniy fazilatlar maqomiga qadar yuksaltirishga erishilgan taqdirdagina bu yorug' dunyoni asrab qolish imkoni topiladi [17].

Insonparvarlik — o'zbek xalqining yuksak umuminsoniy fazilatidir. Xalqimiz o'zining tarixi davomida ko'p narsalarni boshidan kechirgan — madaniyat, ilm-fan, yagona davlatchilik zafarlari nash'asini surdi, o'zaro nizolar, begonalar asorati alamini tortdi, o'zining o'g'il-qizlaridan judo bo'ldi. Lekin tarixning o'yinlari ham, tabiiy ofatlar ham xalqimizning insoniy tabiatiga dog' tushirolmadi. O'zbek oilasida bugungi

kunda yaxshilik va ro‘shnolik, bolalarga mehr, kattalarga hurmat, o‘zgalar qayg‘usiga hamdardlik mujassamlangandir.

O‘zbek millati vakillari ko‘proq umuminsoniy qadriyatlar sifatida insoniy fazilatlar: oliyjanoblik, hamdardlik, vijdonlilik, kamtarlik, jasorat, mardlik, halollik kabi umuminsoniy fazilatlarni qadriyat sifatida keltirganlar [18].

Mehr — xolis va ta‘masiz yaxshi ko‘rish, sevgi-muhabbatning teranlashgan shaklini ifodalovchi tushuncha. Kishilik jamiyatining ma‘naviy taraqqiyotida shakllangan axloqiy fazilat bo‘lib, individuallik xususiyatiga egadir. Mehr kishilar shaxsiy, oilaviy hamda etnik birligini, maqsad va manfaatlarni amalga oshirishda ezgulik yo‘lidagi ijtimoiy munosabatidir [19].

Oila a‘zolari o‘rtasida mehr-oqibat va g‘amxo‘rlik, oila muhitini yanada iliqlashtiradi. Mehr-oqibat insonlar o‘rtasidagi samimiylilik, g‘amxo‘rlik, va bir-biriga nisbatan mehr-muhabbat ko‘rsatish orqali ifodalanuvchi muhim axloqiy qadriyatdir. Mehr-oqibat oila, do‘stlik, va jamiyatdagi munosabatlarning mustahkamligi va barqarorligini ta‘minlaydi. Bu qadriyat boshqalarga nisbatan samimiy va yordamga tayyor bo‘lish, ularga mehr ko‘rsatish orqali insonlarni birlashtiradi va jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni saqlashga yordam beradi [20].

Saxovat (arabcha qo‘li ochiqlik, oliyhimmatlilik, saxiylik) – baland himmatlilik, saxiylik, himmat qilish, yordam qo‘lini uzatish, himmat bilan ehsonu in‘omlar ulashish, ko‘chma ma‘noda tabiiy boylik, mo‘l hosil, to‘kinlik, mo‘l-ko‘llik. Saxovat so‘zi qo‘li ochiqlik, muruvvatlilikni anglatadi. Saxovatlilik insonga xos bo‘lgan xususiyatlarning eng olijanobidir. Chunki hamma insonlar ham saxovatli bo‘lish sharafiga muyassar bo‘la olmaydi [21]. Saxovat kishi obro‘-e‘tiborining pokiza saqlanishiga, el orasida yaxshi nom chiqarishiga sabab bo‘ladi. Begona dillarni birlashtiradi, birodarlik rishtalarini mustahkamlaydi. Shuningdek, aybu nuqsonlarning yopilib ketishida katta ahamiyat kasb etadi. Saxovat va oliyhimmatlilik boshqa xil fazilatlar bilan ham chambarchas bog‘liq va tutashdir. Saxiy kishi ko‘p holatlarda ko‘ngilchanlik va kechirimlilikni lozim tutadi. Muloyimlik va halimlik bilan ziynatlanadi. Xushmuomala bo‘ladi. Birovning haqqiga xiyonat qilmaydi, o‘zganing haqqini o‘z xohishi bilan chiroyli ado etadi. Darhaqiqat, saxiy kishini tavozeli holatda topasiz. Uning axloqlari orasiga kibr-havo degan narsa suqilib kirmaydi [22].

Ma‘rifat — ma‘naviyatga olib keladigan yo‘l, uni shakllantiruvchi vositadir. Ma‘rifat millat tarixining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Turkiston o‘lkasida faoliyat olib borgan jadidchilik harakati namoyandalari madaniy qoloqlik va mustamlaka zulmidan, xalqni zamonaviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqish, milliy davlatchilik asoslarini bunyod etish uchun ma‘rifat yo‘lidan foydalanishgan. Ular ko‘plab maktab ochishgan, ilmfan, matbaachilik, noshirlik, adabiyot, maorifni milliy asosda tashkil etishni yoqlab chiqishgan. Ular yaratgan maktablar xalqqa, avvalo, ma‘rifat tarqatishi, zamonaviy ilmfanni singdirishi zarurligi haqidagi fikr jadidlarning

ma'rifatchilik faoliyatidagi eng asosiy maqsad edi. Millatni, xalqni ma'rifatli qilishga butun hayotlarini baxshida etgan vatandoshlarimizdan Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Cho'lpon, Pahlavon Niyoz Hoji, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriylarning hissalarini katta bo'ldi. Mamlakatimiz istiqbolga erishgandan so'ng ma'rifatni tiklash va taraqqiy ettirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Ma'naviyat va ma'rifat uyg'unligi nimada ko'rinadi? Jamiyat fuqarolarining ma'naviyati ma'rifiy jarayonlar bilan uzviy aloqador. Inson ma'naviyati u o'zlashtiradigan bilim, amaliy tajriba va ko'nikmalar hamda ijodiy kamoloti bilan bog'liq [23].

Madaniyat (arab. shaharga oid, farovon maskan, taraqqiyot o'chog'i) — tabiat va o'zaro munosabatlarda aks etadigan inson faoliyatining o'ziga xos shaklini ifodalaydigan tushuncha. Madaniyat alohida individning hayotiy faoliyati, ijtimoiy guruh yoki jamiyatning faoliyat usulini aks ettiradi. Dastlab madaniyat tushunchasi insonning tabiatga maqsadga muvofiq tarzda ta'siri (yerga ishlov berish, tabiiy boyliklardan foydalanish va hakazo) hamda insonning o'zini tarbiyalashi va bilim olish ma'nosida qo'llangan bo'lsa, keyinchalik turli xalqlar madaniyatning o'zaro yaqinlashuvi, munosabatlarining ifodasi o'laroq jahon madaniyat, tamaddunlar madaniyat tushunchalari paydo bo'ldi. Madaniyat atamasi keng ma'noda qo'llanib, jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy-ma'naviy hayotida qo'lga kiritilgan yutuqlarni, muayyan xalq yoki ijtimoiy guruhning ma'lum davrda erishgan natijalari, o'qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyolilik va ma'rifatlilik hamda turmushning inson ehtiyojlariga mos keladigan sharoitlari majmuini ifodalaydi [24].

Bag'rikenglik (tolerantlik) – o'zgalarga nisbatan mehr muruvvatli, g'amxo'r, saxiy, kengfe'lli bo'lgan, ana shunday ma'naviy fazilatlariga ega kishilarni ifodalovchi tushuncha. Bag'rikenglik o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an'ana marosimlariga hurmat-ehtiromda bo'lish, muomala munosabatda kamsitish va tahqirlashlarga yo'l qo'ymaslik, insoniylikni hamma narsadan ustun hisoblab, jamoada, ish joylarida, mahalla-ko'yda bunga rioya etishni anglatadi. Mazkur tushuncha turli dindagi, turli millat va elatlarga mansub kishilarning bir mamlakat doirasida, yagona davlat tarkibida bahamjihat, tinch osoyishta yashashini ifoda etadi [25].

Ajdodlarimiz bir necha asrlar mobaynida shu mintaqada hamjihat bo'lib, qanday qadriyatlar bilan yashab kelgan bo'lsa, bugun ham, tabiatning o'zi bizni - butun Markaziy Osiyo xalqlarini aynan shunday do'stlik ruhida zamonning o'zi shunday umr kechirishga da'vat etmoqda.

Yurtimizda xalq g'ami bilan yashaydigan vatanparvar insonlar juda ko'p. Xalqimiz yanada kuchayib mustahkam irodasi, iymon-e'tiqodi bilan milliy o'zligimizni anglab olgan. O'z davlatchiligimizni havas qilsa arziydigan fuqarolik jamiyatini mustahkamlash jarayonida ana shunday fazilatlariga tayanib barcha

sohalarda madaniyat, ta'lim-tarbiya va ilm-fanga bo'lgan salohiyatini ro'yobga chiqarish hisobidan taraqqiyotga erishmoqdamiz.

Xulosa qilib aytganda, xalqimizning milliy ma'naviy boyligiga e'tibor qaratishimiz darkor, befarq bo'lmasligimiz kerak. Xalqimizga madad bo'ladigan ma'naviy merosimizga tayangan holda umuminsoniy fazilatlarni ko'z qorachig'imizdek asrashimiz va yanada boyitishimiz zarur hamda shu ishlarni har bir inson amalda vijdonan o'z hissasini qo'shish kerak. Insonlarning ma'naviy tarbiyasini o'ylab, tinchligini ko'zlab harakat qilishimiz kerak va shu yo'lda harakat qilayotgan insonlarni qo'llab-quvvatlashimiz joiz, barcha jamiyat a'zolari hamkorligi bilan amalga oshiriladi, shuningdek, ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatning moddiy ta'minotini takomillashtirishimiz zarur. Jumladan insonning hayoti uchun zarur bo'lgan kutubxonalarni ko'paytirish va sharoitini yaxshilash oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

Ma'naviyatimiz bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarimiz bisyor. Bu masala bo'yicha mening nazarimda orqada qolayotgandek tuyuladi. Shu sohalar yo'nalishidagi kadrlar masalasiga e'tiborimizni qaratishimiz kerak. Bizning kelajagimiz bo'lgan o'sib kelayotgan yoshlarning ma'naviy tarbiyasi va ularning umuminsoniy fazilatlarini yuksaltirish nihoyatda katta javobgarlik va mas'uliyat hissi bilan yondashishni zamonning o'zi talab qilmoqda. Yoshlarimiz ma'naviyatimizning egalaridir. Shuning uchun har bir jamiyat a'zosi dastlabki qadamlaridan boshlab ma'naviyat sohalaridan xabardor bo'lishi kerak. Oynai jahonda filmlarda, matbuot vositalarda ma'naviy, axloqiy, umuminsoniy fazilatlarni yuksaltirish bo'yicha lavhalarni aks ettirish va targ'ib qilishni ko'paytirish lozim.

Barchamiz - qaerda, qaysi lavozimda bo'lmaylik, ma'naviy va axloqiy aqidalarni poymol qiladigan tajovuzkorlikka qarshi turishimiz lozim. Bunday munosabatlar jamoatchiligimizga ham ma'qul bo'ladi. Bugungi globallashuv davrda terrorizm, ekstremizm va boshqa xavf-xatarlarni ehtimolini yaxshi anglab turibmiz. Shularni inobatga olgan holda tarixiy qadriyatlar, urf-odat va an'analarga sodiq qolgan tarzda, nomaqbul holatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan hodisalarning oldini olishimiz zarur. Xalqimizning dunyoqarashini ifoda etadigan ma'naviyatimizga munosabatimizni zamon talablariga mos ravishda yanada rivojlantirish, insonlarning tafakkurini o'zgartirish puxta o'ylab ish qilish kerakligini talab qiladi. Bu borada to'g'ri yo'ldan adashmaslik uchun avvalambor milliy qadriyatimiz bo'lgan ma'naviyatimiz o'zi nima ekanini tushunib olishimiz kerak. Milliy manfaatlarimiz, oldinga intilishlarimizga, taraqqiyotimizga javob beradigan, vaqt o'tgani sari qadri ortib boradigan ma'naviyatimizni qadriyat desak agar, adashmagan bo'lamiz.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

- [1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz: – Toshkent: Tasvir nashriyot uyi, 2021. – 369 b.
- [2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoev. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning poydevoridir [Matn]: – Toshkent: Tasvir nashriyot uyi, 2021. – 6 b.
- [3] Shu manbaa.– 9 b.
- [4] M. Shodieva. Insoniy fazilatlar – oliy qadriyat. Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi. (Elektron resurs). <https://dkm.gov.uz> (Murojaat etilgan sana 19.02.2025).
- [5] M. Madirimov. Xazarasp tumani «Hazrati Shayx Muhammad Amin» jome masjidi imom xatibi. Mafkuraviy tahdidlardan ogoh bo‘laylik. <https://zamaxshariy.uz> (Murojaat etilgan sana 19.02.2025).
- [6] Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 2 | ISSUE 4 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor. SJIF 2022: 5.947. ASI Factor = 1.7 www.oriens.uz April 2022.
- [7] O‘sha manbaa.
- [8] Qo‘chqorov, V. Ma’naviyat asoslari: O‘rta umumta’lim maktablarining 1011-sinflari va o‘rta maxsus, kasbhunar ta’limi muassasalari uchun darslik / V. Qo‘chqorov, O. Mahmudov, Z. Zamonov. Ikkinchi nashr. Toshkent: Yangiyo‘l Poligraf Servis, 2018. 12 b.
- [9] Z. Hamidov «Hilol» jurnalining 6(51) sonidan. (Elektron resurs). <https://islom.uz/> 20-02 (Murojaat etilgan sana 20.02.2025).
- [10] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot. 3 juz Niyat, ixlos, ilm. –T.: “Hilol-Nashr”,2020. 164-b.
- [11] O‘sha manbaa. 165-b.
- [12] O‘sha manbaa. 166-b.
- [13] O‘sha manbaa. 170-b.
- [14] O.Salimov, X.Sultonov, A.Abduvaxitov, D.Kenjaev, A.A’zamov, M.Hojimatov, M.Quronov, Q.Nazarov (tuzuvchi va mas’ul muharrir) Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, Toshkent 2021. 798-b.
- [15] O‘sha manbaa. 798-b.
- [16] T. Sayliev. Mir Arab Oliy madrasasi o‘qituvchisi. Insoniy fazilatlar. (Elektron resurs) <https://kh-davron.uz> (Murojaat etilgan sana 20.02.2025).
- [17] (Elektron resurs) <https://kh-davron.uz> (Murojaat etilgan sana 20.02.2025).
- [18] Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2021, No 6 (41), 85-103 <https://journal.fledu.uz> ISSN: 2181-8215 (online)

[19] O.Salimov, X.Sultonov, A.Abduvaxitov, D.Kenjaev, A.A'zamov, M.Hojimatov, M.Quronov, Q.Nazarov (tuzuvchi va mas'ul muharrir) Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, Toshkent 2021. 387-b.

[20] (Elektron resurs). <https://oilaqadriyat.uz> (Murojaat etilgan sana 20.02.2025).

[21] O.Salimov, X.Sultonov, A.Abduvaxitov, D.Kenjaev, A.A'zamov, M.Hojimatov, M.Quronov, Q.Nazarov (tuzuvchi va mas'ul muharrir) Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, Toshkent 2021. 526-b.

[22] R. Elmurodov, Saxovat – oliy fazilat. (Elektron resurs). <https://www.bukhari.uz> (Murojaat etilgan sana 20.02.2025).

[23] Qo'chqorov, V. Ma'naviyat asoslari: O'rta umumta'lim maktablarining 10-11sinflari va o'rta maxsus, kasbhunar ta'limi muassasalari uchun darslik / V. Qo'chqorov, O. Mahmudov, Z. Zamonov. Ikkinchi nashr. Toshkent: Yangiyo'l Poligraf Servis, 2018. 56 b.

[24] O.Salimov, X.Sultonov, A.Abduvaxitov, D.Kenjaev, A.A'zamov, M.Hojimatov, M.Quronov, Q.Nazarov (tuzuvchi va mas'ul muharrir) Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, Toshkent 2021. 798-b.

[25] Shu manbaa. -75 b.